




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-sentabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 247,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 218,8 mln. AQSh dollariga yoki 6,3 % ga kamaydi.


Mamlakatimizda ko'pchilik faoliyat sohalari to'xtab qolganligi inobatga olinib, korxona va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 1210,6 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati –88,4 %) va import hajmi 2036,5 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 97,2 %) yetdi. Hisobot davrida 825,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2019-yil yanvar-sentabr nisbatan, % da)



■ 2020-yil yanvar-sentabr



TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-sentabr mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Rossiya	744,8	186,0	558,8	22,9
Xitoy	599,9	216,3	383,7	18,5
Qozog'iston	502,9	128,0	375,0	15,5
Turkiya	403,4	330,5	72,9	12,4
Koreya Respublikasi	168,2	8,0	160,2	5,2
Afg'oniston	75,2	75,2	0,0	2,3
B.A.A	65,8	65,1	0,7	2,0
Tojikiston	63,4	41,1	22,2	2,0
Germaniya	55,9	1,5	54,4	1,7
Qirg'iziston	55,5	36,2	19,3	1,7
Latviya	50,7	0,2	50,5	1,6
Ukraina	42,3	23,6	18,7	1,3
Litva	33,8	0,3	33,5	1,0
Italiya	32,9	2,7	30,2	1,0
Belarus	30,6	9,9	20,7	0,9
Niderlandiya	24,8	14,0	10,8	0,8
Braziliya	23,2	0,0	23,2	0,7
Irlandiya	21,7	0,0	21,7	0,7
Ozarbajjon	21,3	9,2	12,1	0,7
Malayziya	18,4	3,0	15,4	0,6



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,5 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 97,3 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida 56,1 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,5 % ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,1 % ga kamaydi.


TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2020-yil yanvar-sentabr, % hisobida)



TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020 yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon va Ukraina bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari va Afg‘oniston bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-sentabr)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan 1210,6 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan 88,4 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (68,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,1 %), turli xil tayyor buyumlar (7,1 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (5,1 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,1 %) shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalar (1,9 %) guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Xizmatlar

- Ichimliklar va tamaki
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-sentabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1210,6	449,7	760,9	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	158,9	116,9	42,0	13,1	26,0	5,5
Ichimliklar va tamaki	1,6	1,4	0,2	0,1	0,3	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	62,0	29,1	32,9	5,1	6,5	4,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,6	0,2	2,4	0,2	0,1	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	37,3	28,5	8,8	3,1	6,3	1,2
Sanoat tovarlari	831,1	176,0	655,1	68,7	39,1	86,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	23,4	13,1	10,3	1,9	2,9	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	86,1	83,5	2,6	7,1	18,6	0,3
Xizmatlar	7,6	1,0	6,6	0,7	0,2	0,9





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-sentabr)

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	88,4	97,6	83,7

shu jumladan:

oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	127,4	120,3	152,3
Ichimliklar va tamaki	65,1	58,5	186,3
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	35,1	58,2	25,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	172,3	193,1	127,9
Sanoat tovarlari	88,4	79,3	91,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	67,2	84,7	53,1
Turli xil tayyor buyumlar	145,5	147,8	97,5
Xizmatlar	72,8	44,0	80,4




VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-sentabr)

Asosiy hamkor
davlatlar

Ulushi 85,8 %

Boshqa hamkor
davlatlar

Ulushi 14,2 %





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 119,9 mln. dollar qiymat ega 204,2 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 9,1 % o'sgan, naturada – 85,0 % ga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 48,4 mln. AQSh dollariga teng 123,2 ming tonna dan ortiq sabzavot (qiymatda 5,5 % ga kamaygan) shuningdek 43,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 46,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 29,5 % ga o'sgan).

2020-yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari



**Meva va
rezavorlar**

46,5 ming
tonna

43,8 mln.
AQSH
dollari



Uzum

26,2 ming
tonna

25,0 mln.
AQSH
dollari



**Qovun va
tarvuzlar**

7,9 ming
tonna

2,3 mln.
AQSH
dollari



**Yeryon-
g'oqlar**

0,4 ming
tonna

0,5 mln.
AQSH
dollari



Sabzavotlar

123,2 ming
tonna

48,4 mln.
AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 92,1 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 7,6 % ni tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-sentabr)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxona va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida import hajmi 2036,5 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,2 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (32,3 %), sanoat tovarlari (18,6 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,0 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-sentabr)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	2036,5	1029,3	1007,2	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	265,5	210,4	55,1	13,0	20,4	5,5
Ichimliklar va tamaki	3,8	3,4	0,4	0,2	0,3	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	284,5	251,3	33,2	14,0	24,4	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	74,3	73,0	1,3	3,6	7,1	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	60,1	45,0	15,1	3,0	4,4	1,5
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	149,2	40,4	108,8	7,3	3,9	10,8
Sanoat tovarlari	379,5	243,4	136,1	18,6	23,6	13,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	657,2	127,6	529,6	32,3	12,4	52,6
Turli xil tayyor buyumlar	106,2	16,1	90,1	5,2	1,6	8,9
Boshqa turdagi tovarlar	20,4	8,1	12,3	1,0	0,8	1,2
Xizmatlar	35,8	10,6	25,2	1,8	1,1	2,5

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (24,4 %), sanoat tovarlari (23,6 %), MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (52,6 %) va sanoat tovarlari (13,5 %) hissasiga to'g'ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-sentabr, % hisobida)

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	97,2	97,1	97,2
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	92,2	133,0	42,5
Ichimliklar va tamaki	174,8	183,7	119,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	70,7	65,7	165,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	337,6	353,0	95,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	105,9	108,9	98,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	107,9	95,8	113,2
Sanoat tovarlari	90,5	82,3	110,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	99,8	134,4	93,9
Turli xil tayyor buyumlar	158,6	117,1	169,2
Boshqa turdagi tovarlar	147,1	389,0	104,6
Xizmatlar	129,8	154,9	121,6





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-sentabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1655,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 81,2 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:(71) 202-86-59